

O`ZBEKISTON-FRANSIYA: TARIXAN TARKIB TOPGAN ALOQALAR

Qudratov Shuxrat Yodgorovich- BuxD

*Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrası dotsenti, t.f.f.d(PhD)*

Ravshanova Ruxshona O`tkir qizi

*Tarix va yuridik fakulteti
4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola O`zbekiston va Fransiya davlatlarining tarixan tarkib topgan aloqalari, diplomatik hamkorligi, savdo-iqtisodiy masalalardagi munosabatlari hamda madaniy sohadagi o`zaro aloqalariga va uning mazmuniga bag`ishlanadi.

Аннотация: Статья посвящена историческим взаимоотношениям Узбекистана и Франции, их дипломатическому сотрудничеству, торгово-экономическим отношениям, культурно-гуманитарным связям.

Abstract: This article is devoted to the historical relations between Uzbekistan and France, their diplomatic cooperation, trade and economic relations, and cultural relations, and their content.

**Kalit so`zlar:** “Kredi Kommersial de Frans”, “Sosiyete Jeneral”, ”Ron pulek”, ”Elf akiten”, “Odson”, “Syukden kerri”, TESIS, ”Bung”, Ryuyel-Malmezon, “Ipak yo`li”.

Основные слова и понятия: Кредит Коммерсиал де Франс, Сосиете Женерал, “Рон Пулэк”, “Эльф Акитен”, “Одсон”, “Сюкден керри”, ТАСИС, “Бунг”, Рюел Малмезон, “Шелковый путь”.

Basic words and concepts: Kredi Kommersial de Frans”, “Sosiyete Jeneral”, ”Ron pulek”, ”Elf akiten”, “Odson”, “Syukden kerri”, TESIS, ”Bung”, Ryuyel-Malmezon, ”Silk Road”.

Kirish. O`zbekiston jahon siyosiy xaritasida, Osiyo qit`asining markazida yangi mustaqil davlat sifatida tobora ko`proq tilga tushmoqda. O`zbekistonda yuz berayotgan o`zgarishlar, uning juda katta tabiiy boyliklari, ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy va intellektual imkoniyatlari, noyob milliy-madaniy me`rosi xalqimiz tarixi va hozirgi hayoti bilan qiziqayotgan dunyoning barcha mintaqalaridagi siyosatchilar, oddiy odamlarni o`lkamizga tobora ko`proq jalb etmoqda. O`zgarib borayotgan jug`rofiy-siyosiy strukturada O`zbekistonning roli ortib bormoqda. O`zbekistonning tinchlik o`rnatishga qaratilgan izchil siyosati natijasida

uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi osoyishtalik va barqarorlikning kafili sifatidagi mavqei mustahkamlanib bormoqda¹.

O`zimiz tanlagan yo`lning eng avvalidayoq AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya kabi iqtisodiy jihatdan rivoj topgan mamlakatlar tajribasiga murojaat etganmiz, boshqa davlatlar tajribasini ham o`zlashtirganimiz bejiz emas. Xorijiy mamlakatlarda davlatchilik, siyosat va iqtisodiyot sohalarida ro`y berayotgan yangi ijobiy o`zgarishlarni qunt bilan o`rganish va bundan o`zimizga kerakli xulosalarni chiqarish lozim².

Shunday ekan, dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri Fransiya bilan O`zbekiston o`rtasida olib borilayotgan munosabatlarni yuqoridagi fikrlar tasdig`i sifatida ta`kidlash muhimdir. Fransiya Respublikasi O`zbekiston mustaqilligini 1992-yil 3-yanvarda tan olgan, 1992-yilning fevral oyida esa ikki mamlakat o`rtasida diplomatik munosabatlar o`rnatildi. 1995-yildan Parijda O`zbekiston Respublikasi elchixonasi faoliyat olib borib kelmoqda. Fransiya O`zbekistonni Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta`minlash borasida yetakchi davlat deb hisoblaydi.

Ikkala mamlakat o`rtasidagi hamkorlikning rivojini barcha sohalarida ko`rish mumkin. O`zbekiston ham Fransiyaning dunyodagi mavqeini e`tirof etgani sir emas.

O`zaro manfaatli hamkorlik istiqbollari O`zbekiston Respublikasi bilan Fransiya Respublikasi o`rtasida 1993-yil 4-noyabrda imzolangan “Do`stlik va hamkorlik to`g`risida”gi shartnomada ham ko`rish mumkin. Unga ko`ra:

1. Tomonlar muntazam ravishda o`z harbiy konsepsiyalari bo`yicha fikr almashib turadilar;

2. Ikkala tomon ham ijtimoiy, iqtisodiy sohada kadrlar tayyorlashda hamkorlikni rivojlantiradilar.

3. Har bir tomon o`z xalqlarini boshqa tomonning ilmiy-texnikaviy, madaniy yutuqlari bilan tanishtirishga harakat qiladi.

4. Tomonlar o`z fuqarolarining ikki davlat o`rtasida borish kelishlarini yaxshilash uchun tegishli shart-sharoitlar yaratib beradilar³.

Amir Temur hazratlari 660 yillik yubileyining 1996-yil 21-24-aprel kunlari Fransiya poytaxti jahon madaniyati sarvari bo`lgan Parij shahrida YUNESKO tashabbusi va rahbarligida nishonlanishi, unda O`zbekiston respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning ishtirok etishi va nutq so`zlashi ulkan voqeaga aylandi. YUNESKO qarorgohida “Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi” mavzuida xalqaro konferensiya va ko`rgazma uyushtirildi. O`zbek san`at ustalari Parijdagi ‘Odson‘ teatrida konsert dasturlarini namoyish etishdi. YUNESKO bosh direktori Federiko Mayor mazkur

¹Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.: “O`zbekiston”, 1996. -B, 175.

² Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lida. -T.: “O`zbekiston”, 1996. -B, 40.

³Tyurikov. V, Shog`ulomov. R. Istiqloq yilnomasi. -T.: “O`qituvchi”, 2-kitob. 2001. -B, 525.

tashkilot kengashining 149-sessiyasida O'zbekiston Prezidentiga so'z bera turib, o'zbek xalqi, uning ko'p ming yillik madaniyatini astoydil yaxshi ko'rib qolganini, shunday mashaqqatli o'tish davrida mamlakatni boshqarayotgan inson irodasiga qoyil qolmay iloji yo'qligini alohida ta'kidlagan edi. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini qayta tiklashdagi xizmatlari uchun F. Mayorga "Do'stlik" ordeni topshirildi⁴.

Bunday yuksak ehtirom har ikki mamlakat uchun samarali hamkorlikning bir ko'rinishi sifatida e'tirof etildi. Fikrimiz tasdig'ini yana Fransiyaning qadimiy shaharlaridan biri Klermon-Ferrandada 1996-yil 13-iyulda "Ipak yo'li" nomli ko'rgazmaning ochilishida ko'rish mumkin. Ko'rgazmada xorijlik sayyohlar e'tiborini jalb etib kelayotgan Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasi, Buxorodagi Labi hovuz ansambli, Xivadagi madrasalar haqida hikoya qiluvchi suratlar namoyish etildi⁵.

Ikkala mamlakat o'rtasida madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitimning imzolanishi bu boradagi azaliy aloqalarning yanada kuchayishiga imkon yaratdi. Fransiya rahbariyati O'zbekiston hukumatining bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik va huquqiy davlat qurishdan iborat yo'lini ma'qul topdi. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vaziri bilan Fransiyaning "Ron pulek" kimyo firmasi o'rtasida, respublika Aloqa vazirligi bilan Fransiyaning Pochta va telekommunikatsiya vazirligi o'rtasida amaliy hamkorlik yo'lga qo'yildi. "O'zbekneftgaz" korporatsiyasi va "Elf akiten" firmasi bilan birgalikda Buxoroda neftni qayta ishlovchi zavod qurishga kelishib olindi. "O'zoziqovqatsanoat" davlat asionerlik konserni "Syukden kerri" firmasi bilan Toshkent va Samarqand viloyatlarida qandlavlagi yetishtirish hamda shakar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha ham dastlabki qadamlarni amalga oshirdi⁶.

TASIS dasturi doirasida Fransiya O'zbekistonga makroiqtisodiyot, moliya, kichik va o'rta biznesni boshqarish sohasida kadrlar tayyorlashda ko'maklashmoqda. Fransiyaning davlat ma'muriyati xalqaro instituti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va Jamiyat qurilish akademiyasi bilan hamkorlik qilmoqda. Toshkent Davlat Texnika universiteti va Per va Mariya Kyuri nomidagi Parij universitetlari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi tuzilgan shartnomaga asosan kosmosdan olingan agrosuratlarni o'rganish ilmiy markazi tashkil etilgan. Ikki mamlakat olimlari quyosh energiyasidan foydalanish (Toshkent viloyatidagi "Solnechniy" qurilmasi negizida), Infesion kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish, ayrim qishloq xo'jalik ekinlarini rayonlashtirish sohasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan⁷.

⁴ Mustaqil O'zbekiston tarixi. 3-tom. -T.: "Sharq", 2000. -B, 396-400.

⁵ Tyurikov. V, Shog'ulomov. R. Istiqlol yilnomasi. -T.: "O'qituvchi", 2-kitob. 2001. -B, 540.

⁶ Dilshod Karim. O'zbekiston-Fransiya :hamkorlik rivoji//Xalq so'zi, 1994-yil 22-aprel.

⁷ Hamedov. I, Alimov. A, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. -T. 2001. -B, 136-140.

1999-yil 1-iyulidan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimga binoan ikki mamlakat o'rtasida eng qulay muhit o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasi hukumatining xorijiy investisiyalarni jalb etishga qaratilgan sa'y-harakati bilan Fransiya mamlakatimizning neft-gaz sohasiga kirishga muvaffaq bo'ldi.

2000-yil 11-14-aprel kunlari Fransiya senatining Tashqi Ishlar, Mudofaa va Qurolli kuchlar bo'yicha komissiyasi raisi rahbarligidagi Fransiya delegatsiyasi O'zbekistonga tashrif buyurdi. Fransiya bosh vaziri Lionel Jospin Fransiya va O'zbekiston davlatlari rahbarlarining siyosiy idorasi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishida alohida o'rin tutishini qayd etib o'tdi. Mamlakatdagi qulay investitsion muhitning mavjud ekaniga dalil sifatida tashrif doirasida O'zbekistonliklarga ma'lum bo'lgan "Bung" va "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi o'rtasida qo'shma korxona tuzish, shuningdek Toshkent shahri, Xorazm viloyati hokimiyatlari o'rtasida Xiva shahrida sayyohlik mehmonxonalarini bunyod etish bo'yicha bitimlar imzolanganligini ko'rsatish mumkin. Shuni e'tiborga sazovorki, Fransiya kompaniyasi Toshkent shahrida o'ta zamonaviy "Sheraton" mehmonxonasini qurgan edi. Bundan buyon ham kompaniya O'zbekiston iqtisodiyotiga mablag kiritishini bildirdi. Ikkala davlat vakillari o'rtasida bo'lib o'tgan majlisda iqtisodiyotning turli sohalari bo'yicha birgalikda loyihalar tuzish ta'kidlandi⁸.

Ikki mamlakat siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorlik bilan bir qatorda, harbiy-texnikaviy soha, parlamentlararo aloqalar bobida yaxshi munosabat o'rnatgan. Fransiya O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi savdo-iqtisodiy sheriklari orasida yetakchi o'rinda turadi. Shu kungacha mamlakatlarimiz o'rtasida turli sohalarga oid yigirmaga yaqin hujjat qabul qilingan. Hozir yana o'nga yaqini tayyorlanmoqda. Samarqand bilan Lion hamda Buxoro bilan Ryuyel-Malmezon shaharlari o'rtasidagi sheriklik aloqalari izchil rivojlanyapti. Uchrashuvda Reno Myuzele mamlakatimiz rahbariga Fransiya Prezidenti Jak Shirakning maktubini topshirdi⁹.

Fransiya Prezidenti Jak Shirakning diplomatik munosabatlar o'rnatilganligining o'n yilligi munosabati bilan Prezident Islom Karimovga yo'llagan maktubida shunday deb yozadi: 'Fransiyaliklar O'zbekiston haqida borgan sari ko'proq ma'lumotga ega bo'lmoqda. Uning qadimiy madaniyati an'ana va afzalliklari nafaqat davlat idoralari, balki xususiy kompaniyalarda kata qiziqish uyg'otmoqda. Fransiya bundan buyon ham har tomonlama muloqotni chuqurlashtirish va barcha sohalarga O'zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirishga intiladi¹⁰.

⁸ Tyurikov, V., Shog'ulomov, R. Istiqlos yilnomasi. -T.: "O'qituvchi", 2-kitob. 2001. -B, 556.

⁹ To'rayev, A. Oqsaroyda qabul. // Xalq so'zi, 2002-yil. 7-noyabr.

¹⁰ O'zbekiston va jahon hamjamiyati. -T.: "G'afur G'ulom" nashriyoti. 2008. -B, 243.

Ikki mamlakat hamkorliklari har tomonlama tenglik asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston va Fransiya o'rtasida o'zaro tovar aylanmasi 2003-yilda 72,3 mln AQSH dollari, shundan eksport 24 mln, import 48,3 mln dollarni tashkil etadi. 2003-yilda O'zbekistonda Fransiyaning 14 kompaniyasi va 2 ta banki ('Kredi Kommersial de Frans' va 'Sosiyete Jeneral') ish olib bordi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston-Fransiya munosabatlarining shartnomaviy-huquqiy asosini turli sohalarni qamrab olgan 20 dan ortiq hujjat tashkil etadi. Toshkent Texnika universiteti bilan Parij universiteti o'rtasidagi hamkorlik haqidagi shartnoma koinotdan olinadigan agrosuratlarni o'rganuvchi o'zbek fransuz ilmiy markaziga asos bo'ldi.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilar ekanmiz, ikki mamlakat o'rtasida yo'lga qo'yilgan, tarixan shakllangan hamkorlik asrlar osha ham o'z salohiyatini yo'qotmay rivojlanib kelmoqda. O'zbekiston-Fransiya ayniqsa, iqtisodiy aloqalar ravnaqiga alohida e'tibor qaratib, sanoat sohasida turli qo'shma korxonalar qurilishiga o'z mablag'larini jalb etmoqdalar. Madaniy sohadagi hamkorlik esa ikkala xalqning bir-biri bilan yaqinlashuvida asosiy omil bo'lib kelmoqda. Ta'lim va siyosiy sohada esa o'zaro fikrlar almashinib, ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi kelgusidagi munosabatlar asosini tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa: Tarixga nazar solsak, O'zbekiston-Fransiya munosabatlari uzoq o'tmishga borib taqalishini kuzatish mumkin. Garchand turli qit'alarda joylashgan bo'lsa-da, ikki mamlakat xalqlari hamkorligiga jug'rofiy sarhadlarning uzoqligi ham to'siq bo'lolmadi. Ikki xalq o'rtasidagi savdo-sotiq ishlari va rasmiy aloqalar sohibqiron Amir Temur zamonidayoq yo'lga qo'yilgan edi. Bu nafaqat ikki xalqni, balki Sharq bilan G'arb dunyosini yanada yaqinlashtirishga xizmat qildi.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilar ekanmiz, ikki mamlakat o'rtasida yo'lga qo'yilgan, tarixan shakllangan hamkorlik asrlar osha ham o'z salohiyatini yo'qotmay rivojlanib kelmoqda. O'zbekiston-Fransiya ayniqsa, iqtisodiy aloqalar ravnaqiga alohida e'tibor qaratib, sanoat sohasida turli qo'shma korxonalar qurilishiga o'z mablag'larini jalb etmoqdalar. Madaniy sohadagi hamkorlik esa ikkala xalqning bir-biri bilan yaqinlashuvida asosiy omil bo'lib kelmoqda. Ta'lim va siyosiy sohada esa o'zaro fikrlar almashinib, ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi kelgusidagi munosabatlar asosini tashkil etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T. "O'zbekiston", 1996. - B, 175.
2. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lida. - T. "O'zbekiston", 1996. - B, 40.
3. Dilshod Karim. O'zbekiston-Fransiya : hamkorlik rivoji // Xalq so'zi, 1994-yil 22-aprel.

4. Hamedov.I,Alimov.A,O`zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari.-T.2001.-B,136-140.
5. Mustaqil O`zbekiston tarixi.3-tom.-T.:” Sharq”,2000.-B,396-400.
6. Tyurikov.V,Shog`ulomov.R.Istiqlol yilnomasi.-T.:”O`qituvchi”,2-kitob.2001.-B,525.
7. To`rayev.A.Oqsaroyda qabul. //Xalq so`zi,2002-yil.7-noyabr.
8. Usmonov Q, G`aniev D. O`zbekiston mustaqil taraqqiyot yo`lida. -T.: “O`zbekiston”, 1994.
9. Usmonov Q, G`aniev D. O`zbekiston: Mustaqillikning 5 yili.-T.: “Sharq”, 1996.
- 10.Usmonov.Q,Qosimov.R va boshqalar.O`zbekiston:13yil mustaqil taraqqiyot yo`lida. -T.:”O`qituvchi”,2004.
- 11.Usmonov.Q va boshqalar. O`zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. - T.:”O`qituvchi”, 1996.
- 12.Usmonov.Q,G`ulomov.S.Mustaqillik O`zbekistonga nima berdi. -T.: OAJBNT, 2000.
- 13.O`zbekiston va jahon hamjamiyati.-T.:”G`afur G`ulom”nashriyoti.2008.-B,243.